



## XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 5-fevral

VII-7-10-7-94-K/25

Jomboy tumani

### **Tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Budgeti kodeksi"ning 126-moddasiga va tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish ishchi guruhining xulosasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, yettinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Jomboy tuman mahalliy budgetining 2025-yil 1-yanvar xolatiga erkin qoldiq mablag'lari hisobidan "Fuqarolar tashabbus jamg'armasi" uchun 533000,0 ming.so'm (besh yuz o'ttiz uch million) so'm tuman hokimligiga ajratilsin.
2. Tuman hokimining birinchi o'rinosari- iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Sadullayev)ga budgetga tegishli o'zgartirish kiritish, tuman g'aznachilik xizmati bo'limi (B.Boyxurozov)ga belgilangan tartibda to'loymi amalga oshirish hamda tuman hokimligi bosh hisobchisi (I.Uralov)ga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishni ta'minlash topshirilsin.
3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (U.Mamatov) zimmasiga yuklatilsin.
4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Jomboy  
tuman Kengash raisi



SOBIROV KAYUM  
XAMRAYEVICH